



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“YANGI O'ZBEKISTON VA MA'NAVIY
YANGILANISHLAR DAVRI: FAN VA TA'LIM-
TARBIYANING DOLZARB MUAMMOLARI”
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMANI MATERIALLARI
TO'PLAMI
2026-YIL 27-28-FEVRAL**



TERMIZ-2026

1. Ajiev A. ., & Orazbaev T. . (2025). Экологическое образование как основа устойчивого развития общества.
2. Atamuratov N., Qoraqalpog‘istonda ekologik ta’limni rivojlantirish istiqbollari. – *Orolbo ‘yi ekologiyasi muammolari*, 2021, №1, 33–39-б.
3. Kurbanbaeva D., Talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning innovatsion usullari. – *Fan va ta’lim*, 2020, №2, 72–77-б.
4. Nishonov, Q. Q. (2021). Ekopedagogika: ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish texnologiyalari. Nukus: QDPU nashriyoti.
5. Rasulov, R. R., & Obidova, M. (2021). Ekologik ta’lim va tarbiya: nazariya va metodika. Toshkent: TDPU.
6. Tlegenov M.T., Ekologik ta’lim va tarbiyaning barqaror rivojlanish jarayonidagi strategik roli, Актуальные вопросы сельского хозяйства и инновационные решения 2025/11/28 Материалы конференции том №1 с.612-617

YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA OLIB BORILAYOTGAN YANGI ISLOHOTLAR

*Tog‘ayev Nodirjon Ergashevich,
Samarqand davlat pedagogika
instituti dotsenti, falsafa doktori (PhD),
Saidova Dilbar Sayfullayevna
Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston yoshlarining bilim o‘rganishiga doir dolzarb maqsadlari tahlil qilingan. Ularning ta’lim-tarbiya, ma’naviyat, mililiylik haqidagi qarashlari falsafiy o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ilmiy meros, yoshlar, ma’naviyat, mustaqillik, falsafa, ta’lim-tarbiya.

Barcha davrlarda yoshlar jamiyat a’zolarining intellektual jihatdan takomillashgan, taraqqiyparvar, ijodkor, ilg‘or qismi hisoblangan. Ijtimoiy-siyosiy mustaqillik va jamiyat rivojlanishida ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid muayyan bilim, ko‘nikmalarni shakllantirishda, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash har doim alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu haqda prezidentimiz Shavkat

Mirziyoyev “O‘z tajribamdan kelib chiqib, sizlarga aytadigan maslahatim shu: ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingiz ham bekor o‘tmasin! Yoshlik - umrning bebaho davri. Ilm va bilim - o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang!” - deb ta’kidlaydi [5:172].

Mamlakatimiz rivojlanishi modernizatsiyalashuvining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida pedagogik kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini amal qilishiga erishishdir. Oliy ta’limning bugungi asosiy vazifalaridan biri yoshlarni kun sayin murakkablashib borayotgan axborot - ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir” - degan fikri BMTga a’zo barsha mamlakatlar vakillarining diqqatini o‘ziga qaratgani bejiz emas [8:5].

“Yangi O‘zbekiston bunyodkori bo‘laman!”, “Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga munosib hissa qo‘shaman!”, degan yuksak maqsadlar farzandlarimiz qalbidan chuqur joy olib, ularning hayoti va faoliyati mazmuniga aylanib borayotgani bilan har qancha faxrlansak, arziydi” [7:408]. Yoshlar ham jamiyatda yashar ekan, shu jamiyatdagi o‘zgarishlarni, yangiliklarni tahlil qilib o‘zlari ham qaysidir sohada, qandaydir yangilikni yaratib iz qoldirishga intilishi zaruriy holdir. Ular o‘z imkoniyatlarini voqelikka aylantirishga doim olg‘a qadam tashlar ekan, jamiyatning yangi taraqqiyot bosqishida yoshlarning milliy qadriyatlar tizimiga axloqiy munosabatini rivojlantirish ishlab shiqarish sohasini yanada takomillashtirishda ustuvorlik kasb etadi. Sotsiologlar ta’kidlaganidek, “yoshlarning g‘oyaviy tarbiyasida insonparvarlik, millatparvarlik va vatanparvarlik kabi fazilatlar faqat konkret-amaliy harakatlar orqali muayyan mazmun hamda ahamiyatga ega bo‘lishi mumkinligiga ham e’tibor qaratish lozim. Shunday

sharoitda turli destruktiv kuchlar, totalitar mafkuralar tahdidi barham topishiga imkon yaraladi. Buning uchun ta'lim-tarbiyani insonparvarlashtirgan holda uning milliy mafkura bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanishini ta'minlash zarur" [3:20]. Bu esa o'z navbatida jamiyat taraqqiyoti iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy jihatlarini o'z ichiga to'liq qamrab oladi. Demak har bir yoshlar ana shu ko'rsatilgan o'z faolligini sohalarda ko'rsatishi ayni xaqiqatdir.

Jamiyatni har tomonlama yangilash jarayonida dastavval yoshlar bugungi taraqqiyotning yangi bosqichidagi maqsad va vazifalarini to'lig'icha tushunishi, ularni o'z ongiga singdirishi muhim jarayon hisoblanadi. Bu borada

birinchidan, yoshlardagi o'tmish – bugungi kun – kelajak spektri fundamental vazifalarini bajarishga yo'naltiruvchi asos bo'la oladi. Bunday axloqiy va ma'naviy manbalarga adabiy meros, buyuk kishilar hayotiy tajribasi, tarixiy meros, me'moriy obidalar va aksiologik ong kiradi.

ikkinchidan, yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishda tadrijiy asosda amalga oshishi kerakligini anglab yetishi.

uchinchidan, yoshlarga Uchinchi Renessans davrida amalga oshirilishi lozim bo'lgan demokratik islohotlarni yorqin misollar yordamida tushuntirish lozimdir.

to'rtinchidan yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uyushtirish orqali yoshlarda axloqiy ong faolligini oshirishda yordam beradigan omillar, tarixiy asarlar, dostonlar, san'at va adabiyot sohalari aks ettiruvshi davrda suhbatlarni tez-tez uyushtirib borishning ahamiyati juda katta.

Hozirgi vaqtda yoshlarning kitob o'qishi, chuqurroq bilim egallashi, ijod bilan shug'ullanishi lozim. Bu haqda konstitutsiyamizda "Har kim ta'lim olish huquqiga ega.

Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi.

Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir" – deb belgilab qo'yilgan [1:32].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Ayni paytda ijtimoiy fanlarni ta'lim bosqichlari va ixtisosliklar talablari va tamoyillariga mosligi o'quvchilar, bakalavrlar va magistrnlarning ehtiyojlari va qiziqishlari, kasb xususiyatlariga muvofiqligi haqidagi aniq tasavvurlar yo'q" - deb bejizga ta'kidlamagan [8:270]. "Endilikda, ta'lim falsafasi, san'at falsafasi, biznes va boshqaruv falsafasi, huquq falsafasi, tabiiy fanlar falsafasi, axborot texnologiyalar falsafasi, muhandislik falsafasi, tibbiyot falsafasi kabi fanlarni mutaxassislik bilan bog'lab o'tish imkoni paydo bo'ladi. Bu esa ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, eng muhimi sifatli hamda kreativ fikrlaydigan kadr tayyorlashga yordam beradi. Bu holatda eng katta muammo falsafiy fanlarning ta'limotlarini milliy davlatchiligimiz falsafasini jahon falsafasi bilan uyg'unlikni ta'minlaydigan dastur va o'quv adabiyotlariga ehtiyoj paydo bo'ladi" [10:5].

Darhaqiqat, jamiyatning yangilanishi va ijobiy o'zgarishlar ta'limdan boshlanadi. Bu yillar mobaynida boy berilgan, hozirda anglab yetilgan, ammo hamon ma'rifatni izlayotgan xalqning birdan-bir najot yo'li. Ta'lim va yoshlar tarbiyasiga doir davlat siyosati yangi avlodni vujudga keltirishga, uning axloqiy qiyofasini, milliy kodini yaratishga qaratilgan. "Mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishning uzoq muddatli senariylari asosida ustuvor soha va tarmoqlarni innovatsion rivojlantirishning kelajakdagi modellarini shakllantirish imkonini beradigan strategik rejalashtirish tizimini yaratish bu borada zamonaviy falsafiy g'oyalarning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish falsafiy fanlar ilmiy tadqiqotlar doirasini kengaytirishga zaruriyat yaratadi" [2:5].

Umuman olganda, ta'lim tizimi yoshlarning manfaatlar dialektikasini anglashlariga undashi, munosabatlarda manfaatlar mavjudligini tushuntirishi, ta'lim-tarbiya orqali shaxsiy manfaatlarni jamiyat manfaatlaridan ustun qo'ymasliklarini, ularning mushtarakligini hamda o'zaro aloqadorlikda ijtimoiy

taraqqiyotga poydevor bo'lishiga doir bilimlarini mustahkamlashi lozim. "Mamlakatimizda yangi turdagi va yangi sifat bosqichidagi ta'lim maskanlari, xususan, Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar faoliyat yuritmoqda. Hozirgi kunga kelib matematika yo'nalishida 112 ta, fizika yo'nalishida 14 ta, kimyo-biologiya bo'yicha 87 ta, informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha 99 ta, xorijiy tillar bo'yicha 207 ta ixtisoslashgan maktablar faoliyat olib borayotganini alohida ta'kidlab o'tish lozim" [6:226].

Shunday ekan, yoshlarda shaxs va jamiyat manfaatlari uyg'unligiga doir bilimlarni o'stirish ularda ijtimoiy taraqqiyotning o'zgaruvshanlik xolatiga moslashishga, ijtimoiy ehtiyojning yo'nalishini tushunishga, bo'lajak kadrlarda bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarini anglashlariga yordam beradi. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo'l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o'qib-o'rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o'zimizni ayamadan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi" – deb ta'kidlaydi [4:6].

Darhaqiqat, insoniyat tajribasidan ma'lumki, har qanday jamiyatning ma'naviy-ruhiy qudratini yuksaltirishda ziyolilar, shu mamlakatda yetishib shiqqan ma'rifatarvar kishilar hal qiluvshi voqeaga ega bo'lgan. Aholining ma'rifatli qatlami ham moddiy, ham ma'naviy tomondan himoya qilinishi, ularning obru-e'tiborini munosib joyiga qo'yilishi, barsha imkoniyat va salohiyat fuqarolarni tarbiyalash, fan, madaniyat, san'at, ta'lim-tarbiya sohalarini rivojlantirish, shaxs va jamiyat orasidagi manfaatlarni uyg'unlashtirish ishlariga safarbar etilmog'i lozim. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak. Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor- o'qituvchilar, haqiqiy ziyolilar kerak. Ochiq aytish lozim, biz bu zahmatkash, fidoyi insonlar

oldida hali qarz dormiz. Shu boisdan ham, qanchalik qiyin bo'lmasin, o'qituvchilar mehnatini munosib rag'batlantirish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz" – deb ta'kidlaydi [6:254].

Yangi O'zbekistonda izchillik bilan bosqichma-bosqich kechayotgan rivojlanish jarayonlari ijtimoiy hayotdagi ta'limning dunyoviy xarakter kasb etishiga, milliy tendensiyalarning umuminsoniy qiyofasini tubdan o'zgartirib yubordi. Bunday o'ziga xoslik ta'lim jarayonining rivojlanishida murakkab va ko'p qirrali tizim sifatida uslubiy, nazariy va amaliy faoliyatning uyg'unligini dolzarblashtirdi. Ta'limning falsafiy negizlari o'z zamirida ta'lim tamoyillari, maqsadlari va usullarini tushunishga va ifodalashga intiladi, shu orqali mavjud tizimdagi kamchiliklarni o'rganishga qanday yondashish zarurligini, nima o'rgatish va nima sababdan ta'lim oluvchilarga ta'sir ko'rsatish yo'llarini metodologik asoslab beradi. Tadqiqotlardagi falsafiy izlanishlar natijasida ta'lim amaliyoti nazariya bilan murakkab o'zaro bog'liqlikni o'z ichiga olishi, bu turli metodologiyalar va nazariy istiqbollarni sintez qilishni talab qilishi bilan bog'liqdir. "Mamlakatimizda bir-biri bilan chambarchas bog'langan ta'lim sohasida - maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarini rivojlantirish bo'yicha beqiyos o'zgarishlar amalga oshirilmoqda" [7:55]. Bu muassasalarning bir-biri bilan uzviylashganligi jamiyatning ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng ko'lamdagi o'zgarishlarni hosil qilayotganligi bilan xarakterlanadi.

Jamiyatda ta'limning uzluksizligini ta'minlash asnosida nazariyani teran falsafiy tafakkur, ilmiy mushohadaga chorlovchi innovatsion g'oyalar bilan boytishimiz kerak. Buning uchun uzluksiz ta'lim tizimidagi o'zaro aloqadorlikni shakllantirish, barcha sohalardagi singari ta'lim tizimining ham amaliy ahamiyat kasb etish jarayonlariga e'tibor qaratish, ta'limdagi innovatsiyalarning dolzarbligini oshirish zarur. Ta'limdagi bunday o'zgarishlarda tabiiy va aniq fanlar ishlab chiqarishga ko'proq olib kirish xarakterlidir. Shu bilan birga falsafiy fanlar ana shu moddiyatni yaratuvchisini tarbiyalashda va boshqarishda muhim rol

uynaydi. Shuning uchun ham innovatsion texnologiyalarning ta'lim tizimidagi o'rnini ko'rsatib berishda ham falsafiy mushohadaga tayanish, ijtimoiy muhit uchun yaratilayotgan yangiliklarning qay darajada xizmat qilishi masalalarini ham chuqurroq anglash lozim.

Ta'lim-tarbiya japayonida yoshlarning demokratik qadriyatlar va uni milliy qadriyatlar munosabati tizimidagi uyg'unligi asosida rivojlanitirish, ularda yuksak ma'naviyatlilik, huquqiy me'yorlar va qonunlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish asosiy vazifalarimizdan hisoblanadi. Bu haqda muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Ta'lim-tarbiya kabi muhim va strategik masalaga eskicha qarash, eskicha bilim va tizim bilan yondashish mutlaqo mumkin emas. Bu borada eng zamonaviy va ilg'or tizimni yaratmasak, oldimizda ko'ndalang turgan bironta muammoni yecholmaymiz" – deya ta'kidlaydilar [4:143].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlaymizki, mamlakatimizda ta'lim jarayonida keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk va mustaqil falsafiy mushohada yuritishga o'rgatishdan iboratdir. Mana shu jarayonda ta'limning barcha bug'inlariga kirib kelayotgan innovatsion texnologiyalarning mohiyatini chuqur anglab yetish, har bir innovatsiyaga nisbatan ta'lim oluvchida erkin ijodiy tafakkurni shakllantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bugun bizdan talab etilayotgan ta'lim bevosita ilm-fanga asoslanishi, unda ijtimoiy muhit uchun xizmat qiladigan ishlab chiqarishning aks etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Biz ta'limga innovatsion texnologiyalarni olib kirayotgan ekanmiz, avvalo ularning inson va uning manfaatlari uchun qanchalik dolzarbligi, jamiyat bilan qanday integratsiyalashganiga e'tibor berishimiz lozim.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. [Матн] расмий нашр. – Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти, 2023.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг - Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлигини ташкил этиш тўғрисидаги Фармони. 2017 йил 29 ноябрь.

3. Базаров О. Х. Талаба-ёшлар маънавий-ахлоқий онгини шакллантиришнинг ижтимоий-фалсафий асослари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент 2019.
4. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлиси Мурожаатномаси. // Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. Т. 4. Т.: „Ўзбекистон“, 2020.
5. Мирзиёев Ш.М. Юрт ишончи ва умидини оқлаш –энг улуғ бахт // Янги Ўзбекистонда эркин ва фаровон яшайлик. Т. 5. Т.: “Ўзбекистон”, 2023.
6. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон ўқитувчи ва мураббийларига // Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислохотлар йўлини катъий давом эттирамиз. Т. 6. Т.: “Ўзбекистон”, 2023.
7. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон ёшларига байрам табриги // Халқчил ислохотлар халқимиз манфаатларига хизмат қилади. Т. 7. Т.: “Ўзбекистон”, 2023.
8. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент. “O'zbekiston” нашриёти, 2021.
9. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеяси 72-сессиясида сўзлаган нутқи // “Халқ сўзи”, 20 сентябрь, 2017 й.
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/uchinchi-renessans-poydevori-shakllanayotgan-davrda-falsafiy-fanlarni-itishni-islo-ilish-yangi-zbekiston-etiyozhi/pdf>

INSON VA TABIAT: GLOBAL MUAMMOLARGA FALSAFIY YONDASHUVLAR

*Turdiyoyev Bozor Xudoyberdiyevich
Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson va tabiat o'rtasidagi murakkab va ziddiyatli munosabatlar global muammolar kontekstida falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Tabiiy va sun'iy muhitning o'zaro ta'siri geosfera, biosfera, kosmosfera, noosfera va texnosfera tushunchalari asosida yoritiladi. Inson faoliyatining kengayishi natijasida yuzaga kelayotgan ekologik xavflar, texnosferaning tabiatga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri hamda bu jarayonlarning inson salomatligi va ruhiy

<i>Tlegenov Marxabay Tolegenovich, Saparov Maxmud Amangeldi ug'li</i> EKOLOGIK TA'LIMNING BARQAROR RIVOJLANISHDAGI STRATEGIK AHAMIYATI.....	1595
<i>Tog'ayev Nodirjon Ergashevich, Saidova Dilbar Sayfullayevna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA OLIB BORILAYOTGAN YANGI ISLOHOTLAR.....	1603
<i>Turdiboyev Bozor Xudoyberdiyevich</i> INSON VA TABIAT: GLOBAL MUAMMOLARGA FALSAFIY YONDASHUVLAR.....	1610
<i>Allanazarov Murod Mirzayevich, Tillayeva Shohsanam Odil qizi</i> YANGI O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY TARAQQIYOTNING HUQUQIY ASOSLARI.....	1620
<i>Xujanazarov Absalom Ziyadullayevich</i> TALABALARDA SOG'LIQNI SAQLASH TARIXIGA OID BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHDA SURXONDARYO VILOYAT SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI TARIXINING O'RNI.....	1624
<i>Azimova Sayyora Xusanboyevna</i> THE ROLE OF EDUCATION AND UPBRINGING IN SHAPING A CONSCIOUS ATTITUDE OF YOUTH TOWARDS GLOBAL CHALLENGES.....	1630
<i>Alimov Sardor Komil o'g'li</i> XORIJDA TA'LIM – O'ZBEKISTONDA INTELLEKTUAL KAPITAL MIGRATSIYASINING KO'RINISHI SIFATIDA.....	1633
<i>B.E.Toshmatov,U.M.Pardayeva</i> UYALI ALOQA VOSITALARINING INSON RUHIYATIGA TASIRINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	1639
<i>Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li</i> TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA YOSHLARNING MA'NAVIY-XLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA ILMIY DUNYOQARASHNING O'RNI HAMDA UNDA FANLARARO YONDASHUVNING AHAMIYATI.....	1644
<i>B. Safarov</i> SURXON VOHASIDA PAXTA TOZALASH SANOATI KORXONA- LARINING SHAKLLANISHI VA UNING VOHA IQTISODIYOTIDAGI O'RNI.....	1650
<i>Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna</i> ZAMONAVIY GLOBAL MUAMMOLAR TIZIMINING YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIRI.....	1656